

“STEM Camp” qishki oromgohi

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab ko'magida joriy yilning 6 yanvaridan boshlab 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun STEM Camp qishki oromgohini ochishdi.

O'tgan yilning 24-dekabrida bolalar va ularning ota-onalari uchun robototexnika bo'yicha dastlabki mahorat darslari bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar robototexnika bo'yicha asosiy bilimlar, oromgohning imkoniyatlari va bolalarga elektronika asoslarini o'rgatish va “Superqahramon” maxsus o'quv-ko'ngilochar Arduino o'quv dasturlari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Batafsil ma'lumotlarni STEM Camp rasmiy telegram kanali (<https://t.me/stemcamp>)da topishingiz mumkin.

□Biz faol va iqtidorli talabalarimiz bilan faxrlanamiz va ularga reja va maqsadlarini amalga oshirishda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!



